



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar-dekabr*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 72-221-51-26***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 8 064 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 58 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 006 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 9 484,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 107,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 424,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 99,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 060,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 116,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,5 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	9 484,6	107,2
Jizzax sh	2 574,3	110,7
tumanlar :		
Arnasoy	236,9	104,5
Baxmal	1 040,9	105,6
G'allaorol	909,2	106,5
Sh Rashidov	1 211,1	108,4
Do'stlik	407,4	104,1
Zomin	1 134,9	104,0
Zarbdor	406,5	106,6
Mirzacho'l	313,6	107,0
Zafarobod	188,4	105,5
Paxtakor	514,9	103,5
Forish	434,7	110,0
Yangiobod	111,8	104,9


2023-yilning yanvar-dekabr oyida 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan viloyatning Jizzax shahri (110,7 %), Forish (110,0 %) va Sh.Rashidov (108,4 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-dekabr)




So'nggi 5 yillikda (2019-2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018-yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ni tashkil qildi.

2023-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)



2023-yilning yanvar-dekabr oyida o'sish sur'ati **107,2** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri 27,0 % bilan 2 574,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangiobod tumani 1,2 % bilan 111,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm







Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 9 060,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 7,6 % ga oshdi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,5 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 99,4 % ni tashkil qildi va 424,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,5 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Baxmal (99,6 %), Do'stlik (99,5 %) va Mirzacho'l (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (13,6 %), Jizzax shahri (7,7 %), G'allaorol (3,3 %), Paxtakor (3,0 %) tumanlarida kuzatildi.

4,5 %

95,5 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, ming so’mda



2024-yilning 1-yanvar holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 359,1 ming. so‘mni (2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 104,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (13 290,3 ming. so‘m), Paxtakor (6 428,2 ming. so‘m) va Zomin (6 397,2 ming. so‘m) tumanlarilari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2023-yil yanvar-dekabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2 116,1	104,5
Jizzax sh	415,9	117,1
tumanlar :		
Arnasoy	17,0	38,2
Baxmal	357,5	98,2
G‘allaorol	236,8	106,9
Sh Rashidov	185,2	97,2
Do‘stlik	118,7	96,4
Zomin	274,4	102,3
Zarbdor	144,5	117,8
Mirzacho‘l	79,1	123,2
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	159,9	101,1
Forish	95,9	113,3
Yangiobod	31,2	109


* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2023-yil yanvar-dekabr)














Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2023-yil yanvar-dekabr)



Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 116,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 078,4 mlrd. so'mni (124,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 037,7 mlrd so'mni tashkil etdi (82,5 %).













2023-yilning yanvar-dekabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 180,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (65,7 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 65,7 mlrd. so'm  36,5 %	Non va non mahsulotlari 25,5 mlrd. so'm  14,2 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 12,9 mlrd. so'm  7,2 %
Tovuq go'shti 5,6 mlrd. so'm  3,1 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 11,9 mlrd. so'm  6,6 %	Tuxum 7,7 mlrd. so'm  4,3 %
Ziravorlar 10,5 mlrd. so'm  5,8 %	Sut va sut mahsulotlari 8,5 mlrd. so'm  4,7 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 16,4 mlrd. so'm  9,1 %
Tuzlamalar 6,3 mlrd. so'm  3,5 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 0,5 mlrd. so'm  0,3 %	Nooziq-ovqat tovarlar 8,5 mlrd. so'm 4,7 %

2023-yilning yanvar-dekabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 105,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 73,6 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 29,2 mlrd. so'mni, otlar – 2,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>37,5 mlrd. so'm</p>  <p>35,5 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>18,1 mlrd. so'm</p>  <p>17,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>18,0 mlrd. so'm</p>  <p>17,1 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>24,7 mlrd. so'm</p>  <p>23,5 %</p>	<p>Otlar</p> <p>2,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>4,5 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 589 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar mavjud emas, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 589 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	354,7	112,4
Jizzax sh	147,2	118,0
tumanlar :		
Arnasoy	1,5	112,0
Baxmal	20,4	109,8
G'allaorol	23,7	107,7
Sh Rashidov	79,5	109,0
Do'stlik	7,7	106,2
Zomin	23,1	108,7
Zarbdor	12,1	112,5
Mirzacho'l	3,5	106,8
Zafarobod	2,7	103,4
Paxtakor	11,5	104,4
Forish	18,5	111,6
Yangiobod	3,3	104,9

2023-yilning yanvar-dekabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 354,7 mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	8 307,8	100,0
Jizzax sh	2 976,8	35,8
tumanlar :		
Arnasoy	3,8	0,0
Baxmal	3 091,0	37,2
G'allaorol	184,0	2,2
Sh.Rashidov	1 657,5	20,0
Do'stlik	3,4	0,0
Zomin	364,2	4,4
Zarbdor	0,1	0,0
Mirzacho'l	0,2	0,0
Zafarobod	0,0	0,0
Paxtakor	1,2	0,0
Forish	20,8	0,3
Yangiobod	4,8	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Baxmal (3 091,0 mlrd. so'm), Jizzax shahri (2 976,8 mlrd. so'm) va Sh.Rashidov (1 657,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2023-yilning yanvar-dekabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 8 307,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,1 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 865,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 146,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 6 441,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 214,5 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 155,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 938,1 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 115,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 711 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 22 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 689 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Yangiobod (165,8 %), Paxtakor (118,7 %) va Mirzacho‘l (116,3 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2022-yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	4155,0	106,6
Jizzax sh	2517,0	116,3
tumanlar :	0,0	
Arnasoy	11,2	93
Baxmal	28,3	12,9
G‘allaorol	60,2	94,9
Sh Rashidov	440,3	118,7
Do‘stlik	119,8	69,5
Zomin	550,7	105,7
Zarbdor	156,9	110,5
Mirzacho‘l	74,1	97,9
Zafarobod	29,0	108,2
Paxtakor	127,6	147,7
Forish	27,2	100,5
Yangiobod	12,7	84,3